

## TRANSPORT VA PIYODALAR HARAKATINI TARTIBGA SOLUVCHI VOSITALAR

***Yunusov Ibrohimjon Nishanovich***

*Fargona viloyati Quva tumani kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi yo'llarida o'ng taraflama harakatlanish joriy etilganligini va transport vositalari hamda piyodalarining harakatlanishini maxsus belgilar, chiziqli ishoralar, svetofor chiroqlari va boshqa omillar orqali tartibga solinadi.

**Kalit so'zlar:** Yo'l harakati qoidalari, transport vositalari, piyodalar, svetofor ishoralar, transportlar, piyodalar harakati.

### **KIRISH**

Yo'l harakati qatnashchilari «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi Qonuni, «Yo'l harakati qoidalari»da keltirilgan svetofor ishoralar, yo'l belgilari, qatnov qismidagi chiziqlarning o'zlariga tegishli bo'lgan talablarini

bilishlari hamda ularga qat'iy amal qilishlari, yollarda harakat nazoratchilari — tartibga soluvchilarning talablarini so'zsiz bajarishlari shart. Haydovchilar ham, piyodalar ham yo'llarda boshqalarning hayotiga xavf tug'diruvchi xatti-harakat sodir etmasliklari lozim. Jismoniy va yuridik shaxslar yo'l qoidalarini buzishga, yo'l belgilari, svetoforlarni va harakatlanishni tashkil etishning boshqa texnik vositalarini o'zboshimchalik bilan olib tashlash, o'rnatish, to'sib qo'yish, shikastlantirish, yollarda harakatlanishga to'sqinlik qiluvchi narsalarni qoldirishga haqlari yo'q va bu qonun yo'li bilan taqiqlanadi.

Svetofor ishoralar — transportlar va piyodalar harakatini tartibga solib turuvchi vositalardan biridir. Siz svetoforlarda yashil, sariq, qizil va oq rangli yorug'lik bolishini yaxshi bilasiz. Bu rangli yorugliklarning har birini o'z vazifasi,

ma'nosi bor. Svetofor ishoralari vazifasiga bog'liq ravishda doirasimon, yo'naltirgich, piyoda tasviri tushirilgan va X simon ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Doira shaklidagi ishorali svetoforlarda yashil doirali ishoralar bilan bir sathda joylashgan yashil yo'naltirgich yoki ikkita qo'shimcha tarmoq bolishi mumkin.

Svetoforning doirali ishoralari:

- yashil - harakatlanishga ruxsat beradi;
- miltillovchi yashil ishora ham harakatlanishga ruxsat beradi va uning ta'sir vaqtini tugashi hamda ko'p olmay taqilovchi ishora yonishi haqida axborot beradi; yashil ishora o'chishga soniya (sekund)lar qancha vaqt qolganligi haqida axborot berish uchun raqamli tablo qollanilishi mumkin;
- sariq - harakatni taqiqlaydi va ishoralar almashuvi haqida ogohlantiradi;
- miltillovchi sariq ishora harakatlanishga ruxsat beradi va tartibga solinmagan chorraha yoki piyodalar o'tish joyi borligidan xabardor qiladi, xavf-xatar haqida ogohlantiradi;
- qizil-shuningdek, miltillovchi qizil ishora harakatlanishni taqiqlaydi;
- qizil va sariq ishoralarning bir vaqtda yonishi harakatlanishni taqiqlaydi va ko'p o'tmay yashil ishora yonishi haqida axborot beradi;
- yo'naltirgich ko'rinishidagi qizil, sariq va yashil rangli svetofor ishoralari ham doira shaklidagi svetofor ishoralari bilan bir xil ma'noga ega bo'ladi. Ular faqat ko'rsatilgan yo'nalishga ta'sir etadi.

Agar tegishli yo'l belgisi bilan taqiqlanmagan bo'lsa, chapga burlishga ruxsat beruvchi yo'naltirgich qayrilib olishga ham ruxsat beradi. Qo'shimcha tarmoqdagi yashil yo'naltirgich ham xuddi shu ma'noni bildiradi:

- qo'shimcha tarmoqdagi ishora o'chirilgan bo'lsa, shu tarmoq tartibga solayotgan yo'nalishda harakatlanish taqiqlanganligini bildiradi;
- agar svetoforning asosiy yashil ishorasiga qora yo'naltirgich (yo'naltirgichlar) ning shakli tushirilgan bo'lsa, u haydovchilarga svetoforning qo'shimcha tarmog'i borligi haqida axborot beradi va shu asosiy tarmoqdagi yo'naltirgichlar yo'nalishlarida harakatlanishga ruxsat berilganligini ko'rsatadi;

— agar svetofor ishorasi piyoda tasviri ko‘rinishida bo‘lsa, u faqat piyodalarining harakatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunda yashil ishora piyodalarining harakatlanishiga ruxsat beradi, qizil ishora esa taqiqlaydi.

Qatnov qismidagi harakat yo ‘nalishi qarama-qarshi tomonga o‘zgarishi mumkin bo‘lgan bo‘laklarida transport vositalarining harakatini tartibga solish uchun X simon qizil ishorali va pastga yo ‘nalgan yo ‘naltirgich ko‘rinishdagi yashil ishorali reversiv svetoforlar qo‘llaniladi. Bu ishoralar qaysi bo‘lak ustiga o‘rnatalgan bo‘lsa, unda harakatlanishni taqiqlaydi yoki ruxsat beradi.

Tramvaylarning, shuningdek, belgilangan yo ‘nalishli boshqa transport vositalarining harakatlanishini, ular uchun ajratilgan maxsus bo‘lakda tartibga solish uchun T -harfi ko‘rinishida joylashgan to‘rtta doirasimon oq rangli ishorali svetoforlar qollanilishi mumkin.

Yuqoridagi bir yoki bir nechta va pastki ishora bir vaqtning o‘zida yonganda, harakatlanishga ruxsat etiladi. Ulardan chapdagisi chapga, o‘ngdagisi o‘ng tomonga burilishga, o‘rtasidagi to‘g‘riga yurishga ruxsat beradi. Agar faqat yuqoridagi uchta ishora bir vaqtda yonsa, harakatlanish taqiqlanadi.

Temir yo‘l kesishmalarida o‘rnatalgan doirasimon oq rangli miltillovchi ishora transport vositalarining kesishma orqali harakatlanishiga ruxsat beradi. Ko‘rinish chegarasida yaqinlashib kelayotgan poyezd (lokomotiv, drezina) bo‘lmasa, o‘chirilgan miltillovchi oq va qizil ishoralarda ham harakatlanishga ruxsat beriladi.

Ma’lumki katta-katta shaharlar, viloyatlar markaziy ko‘chalarida harakatni tartibga solib turuvchi inspektorlar navbatchilik qilishadi.

Tartibga soluvchining har bir ishorasi ma’lum ma’noga ega bo‘lib, ularga haydovchi va piyodalar ahamiyat berishlari zarur. Tartibga soluvchining gavda holati va qo‘l harakatlaridan transport vositalari haydovchilari qanday harakat qilish lozimligini bilib oladilar.

## **XULOSA**

Bolalar! Siz tartibga soluvchilarni ko‘proq chorrahalarda, svetofor o‘rnatilmagan, ammo transport oqimi va piyodalar qatnovi tig‘iz joylarda ko‘rgansiz. Tartibga soluvchi yoki svetofor bo ‘lмаган joylarda harakatlanish

birmuncha murakkablashishini, aytish mumkinki, tartibsizliklarga yo'l qo'yilishini ham yaxshi bilasiz. Shunga ko'ra «Yo'l harakati qoidalari»da belgilanganidek, svetoforlar o'rnatilgan va tartibga soluvchi faoliyat ko'rsatayotgan chorrahalar, bekatlaryoki harakatlanish tig'iz bo'lgan ko'chalar va yo'llarda qonun ustuvorligi, qoidalarning to'la amal qilinishini ta'minlash har bir kishining vazifasidir!

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YATI**

1. Vazirlar Mahkamasining “Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2000-yil 11-dekabrdagi 472-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2000-y., 12-son, 75-modda).
2. Vazirlar Mahkamasining “Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2006-yil 21-noyabrdagi 241-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2006-y., 11-son, 87-modda).
3. M. Rixsiyev, Q. Karimova. Yo'l harakati qoidalari: 8-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo’llanma / O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi IIV yo‘I harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi «Avtohamroh» jurnali;— Toshkent: Yurist-media markazi, 2012.
4. Yo'llarimiz bexatar bo'lsin desangiz. O'quv qo'llanma. / T. Mullaboyev, F. Sodiqov. -T.: O'zbekiston, 2011.